



**TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA
INNOVATSION G'oyalar**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

ILMIY MAQOLA



12 -aprel

Toshkent 2025

**FUQAROLIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDA KONSTITUTSIYANING
AHAMIYATI**

Muyasarov Mironshox Murod o'g'li
Jahon Iqtisodiyoti va Diplamatiya universiteti
Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik ongini shakllantirishda konstitutsyaning ahmiyati va qay darajada kerakligi aytildi .Shu bilan birga Konstitutsiya – har bir davlatning asosiy qonuni bo'lib, u jamiyatda yashash tartib-qoidalalarini belgisi va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlari keitirib o'tilgan . Bu hujjat fuqarolarni o'z huquq va burchlarini tushunishga, qonunga hurmat bilan qarashga va mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Konstitutsiyaviy bilimlar fuqarolik ongining asosini tashkil etadi, bu esa insonlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirib, demokratik jamiyatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Kalit so‘zlar : Konstitutsiya, Fuqarolik ongi, Huquqiy ong, Huquqiy madaniyat, Fuqarolik jamiyati, Qonunchilik, Demokratik tamoyillar, Inson huquqlari, Fuqarolik burchi, Qonun ustuvorligi, Saylov huquqi, Davlat boshqaruvi, Huquqiy islohot, Jamiyat barqarorligi, Axborot vositalari, Ta’lim tizimi, Xalqaro tajriba, Shaxsiy erkinliklar, Adolat prinsipi, Mas’uliyatli fuqarolik.

Fuqarolik jamiyatining barpo etilishi mamlakatning rivojlanishi va barqarorligiga asosiy poydevor bo‘ladi. Bunda eng muhim omil fuqarolarning huquqiy bilim darajasi, burch va mas’uliyatni his etishi hamda davlat boshqaruvida faol ishtirok etishidir. Fuqarolik ongini shakllantirishda Konstitutsiya o‘zgarmas asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu hujjat davlatning bosh qonuni sifatida, fuqarolarga ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi, ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta’minlaydi. Ushbu maqolada Konstitutsianing fuqarolik ongini shakllantirishdagi o‘rni huquqiy, tarixiy va amaliy jihatlarda ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston tajribasi va xalqaro misollar orqali mazmun yanada boyitiladi.

I. Konstitutsianing huquqiy asos sifatida ahamiyati

1. Konstitutsiya va fuqarolik ongi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Konstitutsiya – davlatning huquqiy tizimining yadro hujjati bo‘lib, fuqarolarning erkinliklarini himoya qiladi va jamiyatda mas’uliyatni oshiradi. Ushbu hujjat fuqarolik ongi uchun asosiy yo‘riqnomalar hisoblanadi. Masalan: Huquqlarni belgilash: Konstitutsiya inson huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydi. Majburiyatlarni aniqlash: Har bir fuqaroning davlat va jamiyat oldidagi majburiyatlari ochib beriladi. Adolat tamoyillari: Ijtimoiy tenglik va barqarorlik prinsiplari belgilangan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida “Fuqarolar tengligi” tamoyili belgilangan. Bu nafaqat qonun oldida tenglikni ta’minlaydi, balki jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi .

2. Huquqiy madaniyat va barqaror jamiyat

Fuqarolik ongi huquqiy madaniyatni shakllantiradi. BMTning huquqiy ta’lim bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, huquqiy bilim darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda qonun buzilishi holatlari 40% ga kamayadi. Shuningdek, Konstitutsianing jamiyat barqarorligiga ta’siri:

Davlat tuzilishini samarali boshqarish.

Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini nazorat qilish.

Fuqarolarning erkinliklari va ijtimoiy mas’uliyatini oshirish.

3. Statistik ma’lumotlar va ilmiy tadqiqotlar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Konstitutsianing ta’lim dasturlarida targ‘ib qilinishi huquqiy madaniyatni oshiradi. Jahon bankining 2020-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



huquqiy bilimlarni keng targ‘ib qilgan mamlakatlarda fuqarolarning huquqiy mas’uliyatni anglash darajasi 65% ga oshgan. Bundan tashqari, Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo‘lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash bilan birga, ularning burchlarini ham belgilab beradi. Fuqarolik ongi esa insonning jamiyatdagi o‘rnini, huquq va majburiyatlarini anglash darajasini ifodalaydi. Bu ikki tushuncha o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi.

4. Huquqiy ta'minot va fuqarolik mas’uliyati

Konstitutsiya jamiyatdaadolat va barqarorlikni ta'minlovchi tamoyillarni belgilaydi. Fuqarolar Konstitutsiyada belgilangan huquqlaridan xabardor bo‘lgan sari, ular davlatga va jamiyatga nisbatan mas’uliyatini chuqurroq anglaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida “Fuqarolar tengligi” prinsipi keltirilgan bo‘lib, bu fuqarolar orasida birdamlik va hurmatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Ta'limning roli

Fuqarolik ongini shakllantirishda ta'lim tizimi muhim rol o‘ynaydi. Konstitutsiya bo‘yicha berilgan bilimlar orqali yosh avlod o‘z huquq va burchlarini to‘g‘ri tushunadi. Masalan, “Davlat va huquq asoslari” fani orqali O‘zbekistonda o‘quvchilar davlat tuzilishi va fuqarolik jamiyatining ahamiyatini o‘rganmoqda .

6. Huquqiy madaniyatni rivojlantirish

BMT ma'lumotlariga ko‘ra, huquqiy madaniyat yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyatni barqaror bo‘ladi. Bu Konstitutsiya orqali fuqarolar huquqlarini himoya qilish va ular orasida ijtimoiy mas’uliyatni oshirish bilan bog‘liq.

7. Misol: O‘zbekiston tajribasi

O‘zbekiston Konstitutsiyasi fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini, ularning erkinliklari va qonuniy mas’uliyatlarini kafolatlaydi. Fuqarolar har yili Konstitutsiya kunini nishonlash orqali davlatning huquqiy asoslariga bo‘lgan hurmatini namoyish etadi.

II. Tarixiy faktlar: Konstitutsiyalarning rivojlanishi va ahamiyati

1. Dunyodagi ilk Konstitutsiyalar

Dunyoda huquqiy tizimni shakllantirishda ilk Konstitutsiyalar muhim rol o‘ynagan. Masalan: AQSh Konstitutsiyasi (1787): Bu hujjat inson huquqlari va davlat boshqaruvining demokratik tamoyillarini targ‘ib qilgan birinchi yozma Konstitutsiya hisoblanadi. Fransiya Konstitutsiyasi (1791): Fuqarolik erkinliklari vaadolat tamoyillarini targ‘ib qilgan hujjat. Ilk Konstitutsiyalar fuqarolarning o‘z huquqlarini himoya qilish va jamiyatda o‘z o‘rnini aniqlash bo‘yicha muhim qadam bo‘ldi.

2. O‘zbekistonda Konstitutsiyaning rivojlanishi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilinib, davlat mustaqilligining huquqiy asosini yaratdi. Ushbu hujjatda inson huquqlari, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar aniq belgilangan.

3. Misollar va tarixiy ahamiyat

Germaniya Konstitutsiyasi (1949) mamlakatning demokratik boshqaruv tizimini mustahkamlashga yordam berdi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda har bir shaxsning davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor berildi.

III. Amaliy ahamiyat: Fuqarolar ongini shakllantirishda Konstitutsiyaning ta'siri .

1. Ta'lim tizimida huquqiy bilimlarning roli

Maktablarda Konstitutsiya asoslarini o‘qitish yosh avlodda huquqiy ongini shakllantiradi. O‘zbekistonda maktab va oliy ta’lim tizimlarida “Davlat va huquq asoslari” fani joriy qilingan bo‘lib, bu fuqarolik mas’uliyatini oshirishga qaratilgan.

2. Axborot vositalarining o‘rni

Ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy bilimlarni keng targ‘ib qilish fuqarolar ongini oshirishda muhim vositadir. Masalan, davlat telekanallarida Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan maxsus dasturlar aholining bilimlarini oshiradi.

3. Fuqarolik mas'uliyatini oshirish uchun dasturlar

Fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlash maqsadida turli platformalar yaratildi. Masalan, O'zbekiston "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı" orqali fuqarolar huquqiy yordam va xizmatlardan foydalanmoqda.

4. Statistika va amaliy natijalar

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, davlat xizmatlaridan foydalanish qulayligi aholining davlatga bo'lgan ishonchini 30% ga oshirgan.

IV. Huquqiy madaniyat va huquqiy ongning fuqarolik ongiga ta'siri

Huquqiy madaniyat va huquqiy ong fuqarolik jamiyatining poydevorini tashkil etuvchi asosiy tushunchalardandir. Ular fuqarolarning huquq va burchlarini anglashga yordam berib, jamiyatdagi barqarorlik va adolatni ta'minlaydi. Fuqarolik ongi esa fuqarolarning davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini chuqur tushunishi va o'z faoliyatida huquqiy asoslarga amal qilishi bilan shakllanadi.

1. Huquqiy madaniyatning ahamiyati

Huquqiy madaniyat fuqarolarning huquq va burchlarini anglash darajasini belgilaydi. U quyidagi jihatlar orqali fuqarolik ongiga ta'sir ko'rsatadi:

Huquqiy bilimlar oshishi: Huquqiy madaniyat fuqarolarga o‘z huquqlarini to‘g‘ri himoya qilish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Masalan, davlatning saylov jarayonlarida faol ishtirok etish yoki huquqiy nizolarni qonuniy yo‘l bilan hal qilish.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Fuqarolik mas’uliyatining kuchayishi: Huquqiy madaniyatni rivojlantirish fuqarolarda qonunga hurmat va ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi.

Statistik ma’lumotlarga ko’ra, huquqiy madaniyat darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarda fuqarolarning qonun buzilish holatlari 35% ga kamayadi.

2. Huquqiy ong va fuqarolik mas’uliyati

Huquqiy ong – bu fuqarolarning huquqiy bilimlar va qadriyatlarni ichki qabul qilishi va ularga amal qilish ko‘nikmasidir. Huquqiy ongning yuqori darajasi fuqarolik ongiga ijobiy ta’sir qiladi:

Adolat va tenglik prinsiplari: Fuqarolar huquqiy ongi orqali jamiyatda adolat tamoyillariga amal qilishga o‘rganadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi har bir fuqaroning qonun oldida tengligini ta’minlaydi.

Qonunga bo‘lgan ishonchni shakllantirish: Qonuniylikni anglagan fuqarolar jamiyatning rivojlanishida faol ishtirok etadi.

3. Fuqarolik ongini shakllantirishda ta’lim tizimining roli

Fuqarolik ongiga huquqiy madaniyat va ongning ta’siri, asosan, ta’lim jarayonida amalga oshiriladi .

Huquqiy bilimlarni yosh avlodga yetkazish: O‘zbekistonda maktablarda “Davlat va huquq assoslari” fani orqali huquqiy ongni oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Huquqiy targ‘ibot: Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari va davlat idoralari muhim rol o‘ynaydi.

4. O‘zbekiston tajribasi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari fuqarolik ongi va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Davlat siyosati fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirish, ularning jamiyatda faol pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. 2023-yilda Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarishlar fuqarolarning ijtimoiy mas’uliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan.

5. Xalqaro tajriba

Huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or mamlakatlar tajribasi ham diqqatga sazovordir:

Germaniya: Huquqiy ongni kuchaytirish orqali ijtimoiy birdamlikni rivojlantirishga erishgan.

Shvetsiya: Ta’lim tizimida huquqiy bilimlarni kengaytirish orqali fuqarolik ongi yuqori darajaga ko‘tarilgan.

V. Konstitutsiyaviy islohot va fuqarolik.

Shu kunlarda umumxalq muhokamasida kelib tushgan takliflar asosida “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi maromiga yetkazilmoqda. Loyihada, jumladan, yurtdoshlarimiz O‘zbekistonning har bir fuqarosi mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar yoki yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega bo‘lishi, shuningdek, barcha fuqarolarga mamlakatdan to‘sqliarsiz chiqish va qaytish huquqi kafolatlanishi yuzasidan bildirgan takliflar ham o‘z aksini topmoqda.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasining 28-moddasiga ko‘ra: “O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy asoslarda bo‘lib turgan har bir shaxs respublika hududi bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. Har kim respublikadan tashqariga chiqish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari O‘zbekistonga moneliksiz qaytish huquqiga ega”.

Agar yangi normalar bilan to‘ldirilgan ushbu moddaning birinchi jumlasini amaldagi Konstitutsianing 28-moddasi birinchi jumlesi bilan solishtirilsa, “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi” degan tushuncha yangi tahrirdagi matnda “O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy asoslarda bo‘lib turgan har bir shaxs” degan mazmunda kengaytirilganini kuzatish mumkin.

Eng asosiysi, taklif etilayotgan tahrirda mavjud normalar aniqlashtirilgan. Xususan, nafaqat fuqarolarning, balki mamlakatimizda qonuniy asosda yurgan har bir kishining bir joydan ikkinchi joyga erkin ko‘chish, yashash joyini erkin tanlash va respublikadan tashqariga chiqish huquqlari mustahkamlangan.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy asoslarda bo‘lib turgan har bir shaxs deganda, bir tomonidan, fuqaroligi bo‘lmagan yurtdoshlarimiz, ikkinchi tomonidan, xalqaro huquq talablari doirasida yurtimizda bo‘lib turgan xorijiy fuqarolar ham tushuniladi.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar tufayli mamlakatimizda fuqarosizlikka barham berish borasidagi vaziyat keyingi besh yilda tubdan o‘zgardi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar sonini kamaytirish bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rish bilan bog‘liq chaqirig‘iga javoban birgina 2021 yilning o‘zida 56 ming 751 nafar shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘ldi.

Keyingi davrda yangilangan “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, mamlakatimizda kamida 15 yil davomida yashab turgan va doimiy yashash joyida ro‘yxatdan o‘tgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri fuqarolik berilishining yangi tartibi o‘rnatildi.

Bundan tashqari, BMT Qochoqlar ishlari bo‘yicha oliy komissari Boshqarmasining 2024 yilgacha fuqarosizlikka barham berish bo‘yicha Global





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



harakatlar rejasiga ko‘ra, O‘zbekistonda tug‘ilish holatlarini yalpi ro‘yxatga olishni ta’minlash maqsadida chaqaloqlarni, shu jumladan, hujjatlari mavjud bo‘lmagan ota-onalardan tug‘ilgan bolalarni rasmiylashtirish amaliyotiga o‘zgarishlar kiritilgan.

Fuqarolik va fuqarosizlik bo‘yicha modul hamda mazkur modul asosida o‘qituvchilarga ta’lim berish dasturi ishlab chiqildi. Markaziy Osiyoda fuqarosizlikni kamaytirish va tugatish masalalariga bag‘ishlangan qo‘shma tadbirlar tashkil etildi. BMTning 1954 yilgi Apatridlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiyasi va 1961 yilgi Fuqarosizlikni qisqartirish to‘g‘risidagi konvensiyasi hamda Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni himoya qilish bo‘yicha Rahbariy qoidalar o‘zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi.

BMTning 1961 yilgi Fuqarosizlikni kamaytirish to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘silar ekan, hukumatlar fuqarolikka bo‘lgan ustuvor huquqni himoya qilishga sodiqligini namoyon etadi. Zero, inson qadri – ulug‘, inson huquqlari bardavomdir.

Shaxsning fuqarolikka egaligi jamiyat hayotiga to‘laqonli ishtirok etish, xususan, siyosiy huquqlarini amalga oshirish, saylovda ishtirok etish, mulk huquqidan foydalanish, mehnat, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi huquqlarini qonuniy asosda keng ro‘yogha chiqarish imkoniyatlarini kafolatlaydi. Fuqarolik, shuningdek, insonning mamlakat hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, mamlakatga kelish va undan chiqib ketish kabi boshqa bir qator huquqlarini ham ta’minlaydi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 13-moddasida har bir inson har bir davlat doirasida bir joydan ikkinchi joyga erkin ko‘chish va o‘ziga yashash joyini tanlash, istalgan mamlakatni, shu jumladan, o‘z mamlakatini tark etish va o‘z mamlakatiga qaytish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan.

Yashash joyini tanlash erkinligi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 12-moddasida ko‘rsatilgan. Paktda qayd etilishicha, ushbu erkinlik qonunda nazarda tutilgan, davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligini yoki axloq-odobini yoki boshqalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan va Paktda e’tirof etilgan boshqa huquqlar bilan mos keladigan cheklovlardan boshqa hech qanday cheklovлага duchor bo‘lmasligi kerak.

Shu ma’noda, hozirgi kunda Konstitutsiya islohoti doirasida ko‘rib chiqilayotgan konstitutsiyaviy kafolat davlatga ushbu huquqlarni himoya qilish va ushbu erkinliklarning asossiz hamda qonunga xilof ravishda cheklanishiga yo‘l qo‘ymaslik majburiyatini yuklaydi. Bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish va yashash erkinligi shaxs huquqlarining ustuvorligi tamoyiliga rioya qilish asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoev siyosati tufayli Konstitutsiyaning 28-moddasida mustahkamlangan insonning shaxsiy huquq va erkinliklarini amalga oshirishi uchun qulayliklar tug‘ildi. Ya’ni, yurtdoshlarimizning xorijiy mamlakatlarga chiqishi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



osonlashdi. Chet el safarini istaganlar uchun stiker olish tartibi bekor qilinib, o‘rniga «qizil pasport» joriy qilindi.

Mamlakatimizda ochiqlik siyosatini ta’minlash uchun 90 ta xorijiy davlat fuqarolari uchun O‘zbekistonga vizasiz kirish imkoniyati yaratildi. Yana 60 ga yaqin mamlakat fuqarolariga esa yengillashtirilgan tartibda viza olish imkoniyati berildi. Bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng ochiq davlat maqomini qo‘lga kiritdi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi axborot xizmati ma’lumotiga qaraganda, 2022 yil 9 oyida Rossiya, Janubiy Koreya, Qozog‘iston, Buyuk Britaniya, Turkiya, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlarga 27 mingdan ortiq fuqaro manzilli ishlarga jo‘natilgan. Agentlikning xorijdagi vakolatxonalarini aralashuv bilan yurtdoshlarimizning ish beruvchilaridan 834 ming AQSh dollari miqdoridagi ish haqlari undirib berilgan.

Agentlik tomonidan jami 206 mingdan ortiq fuqaroga xizmatlar ko‘rsatilgan. Xususan, 183 mingdan ortig‘iga — maslahat xizmati, 6 ming 63 nafariga — huquqiy, 15 mingdan ortig‘iga — ijtimoiy, 2 ming 595 nafariga — moddiy yordam ko‘rsatilgan. Shuningdek, 198 nafar fuqaro vaqtinchalik xostellarga joylashtirilgan, og‘ir vaziyatlarga tushib qolgan 844 nafar fuqaro esa O‘zbekistonga olib kelingan.

Shunday qilib, yurtimizda istiqomat qiladigan har bir inson davlat rahbarining: “Hech kim hech qachon unutmasligi kerak: qanchalik qiyin bo‘lmisin, qancha mablag‘ va imkoniyat talab etilmasin, O‘zbekistonning bironta fuqarosi o‘z holiga tashlab qo‘yilmaydi”, degan qat’iy irodasi va prinsipi hayotimizda nechog‘lik samarador tasdig‘ini topayotganiga amalda guvoh bo‘lmoqda.

O‘zbekiston tajribasi: Konstitutsiyaning yangilanishi va fuqarolik jamiyatni rivoji

1. 2023-yilgi Konstitutsiya o‘zgarishlari

2023-yilda O‘zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlar inson huquqlari va davlat boshqaruvida aholining ishtirokini oshirishga qaratilgan. Bu yangiliklar fuqarolarning huquqiy ongi va jamiyatdagi mas’uliyatini yanada oshirdi.

2. Fuqarolik jamiyatiga ta’siri

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan amalga oshirilgan bu islohotlar O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishga qaratilgan. Masalan, fuqarolar o‘rtasida referendum o‘tkazilishi orqali aholi faolligi oshirildi.

3. Misollar orqali o‘zgarishlarning ta’siri

Fuqarolarning davlat boshqaruvida qatnashish darajasi sezilarli oshdi. Misol uchun, 2023-yilda o‘tkazilgan saylovlarda ishtirok etgan fuqarolarning 75% i o‘z saylov huquqidan foydalangan. Fuqarolik ongingin rivojlanishi davlatning demokratik tamoyillarga asoslangan barqarorligini ta’minlaydi. Konstitutsiya esa





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ushbu jarayonning asosiy yo‘nalishini belgilovchi huquqiy hujjat hisoblanadi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kuchli va zamonaviy Konstitutsiya davlatning asosiy ustuni bo‘lib, fuqarolar huquq va burchlarini anglashga xizmat qiladi. Har bir fuqaro Konstitutsiya qoidalarini chuqur anglash orqali o‘z mamlakati taraqqiyotiga bevosita hissa qo‘shishi mumkin. Shu bois, huquqiy ta’lim va axborotni targ’ib etish bejis emas .

Foydalanilgan manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (1992-yil 8-dekabr). <http://lex.uz>
2. BMT huquqiy ta’lim bo‘yicha hisobotlari. (2020) <http://un.org>
3. Jahon bankining "Huquqiy bilim va barqarorlik" tadqiqoti. (2020) <http://worldbank.org>
4. O‘zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlar. (2023). <http://constitution.uz>
5. AQSh Konstitutsiyasi tarixi va tamoyillari. (1787). <http://archives.gov>
6. Germaniya Konstitutsiyasining ijtimoiy adolatga ta’siri. (1949). <http://bundestag.de>
7. O‘zbekiston davlat xizmatlari yagona portalı statistik ma’lumotlari. <http://my.gov.uz>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan ma’ruzasi. : <http://press-service.uz>
9. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi : <http://insonhuquqlari.uz>.

